

---

## Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi

Bugun viloyat hokimligi katta majlislar zalida Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 oktyabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mazmun-mohiyatini tushuntirish masalalariga bag'ishlangan o'quv seminari tashkil etildi.

Viloyat hokimining o'rinbosarlari, guruh va kotibiyat mudirlari, apparat xodimlari, viloyat boshqarma va tashkilotlari vakillari ishtirokida shahar-tumanlar hokimliklari bilan videokonferentsaloqa shaklida o'tgan seminarda dastlab Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi mas'ul xodimi O'ktam Hamraevning ma'ruzasi eshitildi. Davlat fuqarolik xizmatchilari o'rtasidagi o'zaro axloqiy munosabatlar, davlat fuqarolik xizmatchilarining ishchanlik obro'si va xizmatning nufuziga putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlar yoki harakatsizlik, xizmat faoliyatidagi va xizmatdan tashqaridagi xulq-atvorning asosiy qoidalari haqida batafsil tushuncha berildi.

2022-11-19 20:38:53